
“Prokuror kubogi” musobaqasi o‘tkazildi

Yoshlarni sportga keng jalb qilish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish hamda milliy sport turi bo‘lgan Kurashni ommalashtirish shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.11.2020 yildagi “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4881-sonli Qarori ijrosi yuzasidan 28-29 iyun kunlari Kurash milliy sport turi bo‘yicha “Tuman prokurori kubogi” musobaqasi o‘tkazildi. O‘tkazilgan ushbu musoboqa xalqaro sport qoidalari asosida amalga oshirilib, jami 165 nafar o‘smirlar va uyushmagan yoshlarni qamrab oldi. Bulardan, 68 nafari qizlar tashkil etdi.

Ushbu musobaqalarning ochilish marosimi va final bosqichigacha bo‘lgan bellashuvlar tuman BO‘SMga tegishli sport zalida o‘tkazildi. Musobaqaning final bosqichi “Xalqaro kulolchilik markazi”da bayramona ruhda tashkil etilib, musobaqa mehmonlari sifatida sektor rahbarlari va tumandagi barcha tashkilot va muassasalar rahbarlari ishtirok etishlari ta‘minlandi.

“Rishton tuman prokurori kubogi” musobaqasi jami bo‘lib 12 ta vazn toifasida o‘tkazildi va musobaqa g‘olibi va sovrindorlari tuman prokurori tomonidan medallar, diplomlar va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-07-01 09:07:37